**Bajarilishi ikki yilga mo‘ljallangan amaliy loyihalar mavzusi**

<table>
<tr><th colspan="3">“Tibbiyot fanlari” yo‘nalishi</th></tr>
<tr><th>№</th><th>Amaliy<br>loyiha mavzusi</th><th>Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija</th></tr>
<tr><td></td><td>Eshitish qobiliyati zaif bolalarda koxlear implantatsiyadan oldin va keyin ogiz bo‘shlig‘ining morfo-funktsional holatini o‘rganish hamda kompleks reabilitatsiya dasturini ishlab chiqish<br></td><td>Tadqiqotning shakli: Amaliy.<br>Ilmiy-tadqiqot natijalari:<br>- yaratilgan reabilitatsion dastur yordamida eshitish qobiliyati buzilgan bolalarda jarroxlik koxlear implantant qo‘yilguncha va qo‘yilgandan keyingi holatlarda og‘iz bo‘shlig‘i va tish jag‘ tizimi morfo-funksional holati innovatsion usullarda baholanadi;<br>- koxlear implantatsiya bir tomonlama yoki ikki tomonlama o‘tkazilganda tish jag‘ tizimiga ta’siri qiyosiy baholanib, individual holati tahlil qilinib, optimal reabilitatsion dastur tanlanadi;<br>- yangi an’anaviy va noan’anaviy usullardan foydalanib, shu guruhdagi bolalarni jamiyatga sog‘lom bolalar qatoriga kirg‘izishga me’yorlar ishlab chiqiladi;<br>- eshitish qobiliyati zaif bolalarda koxlear implantatsiyadan oldin va keyin ogiz bo‘shlig‘ining morfo-funktsional holatini Respublikamizning barcha xududlarida o‘rganiladi va reabilitatsion dastur asosida sog‘lomlashtirish bosqichlari muddati qisqartiriladi;<br>- eshitish qobiliyati zaif bolalarda koxlear implantatsiyadan oldin va keyin ogiz bo’shlig’ining morfo-funktsional xolatini o‘rganish hamda kompleks reabilitatsiya dasturini ishlab chiqiladi.<br>Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Ijtimoiy himoya milliy agentligi va Sog‘liqni saqlash vazirligi tasarrufidagi ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarida sinovlardan o‘tkaziladi.<br>Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.<br>Izoh: Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Sog‘liqni saqlash vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.</td></tr>
</table>